

reputation and stakeholder trust but also foster long-term value creation. For Uzbekistan to meet global standards and stay competitive in an increasingly interconnected and conscious global market, it is imperative to integrate ESG principles into its corporate and national strategies. Given the country's rich natural resources, emerging market potential, and commitment to modernization, integrating ESG practices is not only feasible but could serve as a catalyst for positive growth. The growing global emphasis on ESG makes it an essential component for Uzbekistan's future competitiveness and resilience in the global economy.

References

1. Strategy "Uzbekistan-2030"
2. Updated Nationally Determined Contribution, Republic of Uzbekistan, 2021
3. Kate Raworth, Doughnut Economics "7 ways to think like a 21th century economist", 2017.
4. Covachev, S., Martel, J., & Brito-Ramos, S. (2025). Are ESG factors truly unique? *North American Journal of Economics and Finance*, 77(January), 102386. <https://doi.org/10.1016/j.najef.2025.102386>
5. Gibbon, K., Derwall, J., Gerritsen, D., & Koedijk, K. (2025). Journal of International Money and Finance Renaming with purpose : Investor response and fund manager behaviour after fund ESG renaming. *Journal of International Money and Finance*, 152(January), 103263. <https://doi.org/10.1016/j.jimfin.2024.103263>
6. Kang, S., & Hong, A. (2025). Navigating ESG challenges in ICT: Risks and rewards across the pandemic landscape. *International Review of Economics and Finance*, 99(February), 103994. <https://doi.org/10.1016/j.iref.2025.103994>
7. Radzi, S. H. M., Hamid, N. A., & Ismail, R. F. (2023). An Overview Of Environmental, Social And Governance (Esg) And Company Performance. *Proceedings of the International Conference in Technology, Humanities and Management (ICTHM 2023)*, 12-13 June, 2023, Istanbul, Turkey, 131, 1111-1122. <https://doi.org/10.15405/epsbs.2023.11.90>

HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGI VA BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

*Sevara Ismatova Abdushukur qizi
TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlanirishning ilmiy asoslari va muammolari"
ilmiy-tadqiqot markazi doktoranti*

Annotatsiya: Mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalar, xususan, xorijiy investitsiyalar katta ahamiyatga ega. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining muhim yo'naliishlaridan biri hududlarning barqaror

iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash bo'lib kelmoqda. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va turmush sharoitining yaxshilanishi bevosita ularning iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq hisoblanadi.

Kalit so'zlar: moliya bozori, ESG, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik, barqaror iqtisodiy rivojlanish, investitsiya, SWOT tahlili.

Hududlar raqobatbardoshligini oshirish nafaqat iqtisodiy o'sish va sanoat rivoji, balki hududning investitsion muhitini yaxshilash, moliya resurslarini jalb qilish va samarali taqsimlash orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda moliya bozori vositalari va mexanizmlarining rivojlanishi muhim rol o'ynaydi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi barqaror rivojlanishga erishishni asosiy maqsad qilib qo'ygan va ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini xalqaro talablar asosida iqtisodiyotning barcha sohalarida joriy etishni qo'llab-quvvatlaydi. Ayniqsa, moliya bozori ESG talablariga mos ravishda takomillashsa, hududlarda barqaror va raqobatbardosh iqtisodiy muhit shakllanadi.

O'zbekiston iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash bo'lib kelmoqda. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va turmush sharoitining yaxshilanishi bevosita ularning iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq hisoblanadi.

Hududlarning raqobatbardoshligi milliy iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u hududlarning iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanish, investitsiyalarni jalb qilish, innovatsion rivojlanish va aholi turmush darajasini oshirish bilan bevosita bog'liq. Raqobatbardoshlikni ta'minlash va uni baholashning samarali metodikasini ishlab chiqish hududiy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash uchun muhim omillardan biri hisoblanadi.

Yuqoridaagi holatdan kelib chiqib, hududlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun ustuvor yo'nalishlarni SWOT tahlili yordamida aniqlash mumkin. Kuchli tomonlar va imkoniyatlarni maksimal darajada rivojlantirish, zaif tomonlarni bartaraf etish, tahdidlarni kamaytirish choralarini strategik rejorashtirishda asosiy turtki bo'lib xizmat qiladi.

Barqaror iqtisodiy o'sishga erishish sharoitida hududlarning raqobatbardoshligini ta'minlash muammosi murakkab va dolzarb bo'lib kelmoqda. Bu jarayon bevosita hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanish imkoniyatlarini eng samarali boshqarishga qaratilgan. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 29-mart 2024-yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan yig'ilish o'tkazdi. Muhokamada mamlakatimiz rahbari xususan iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga hamda tarmoqlarning raqobatbardoshligini takomillashtirish masalalari ilgari surildi. Mamlakat rahbari tomonidan keltirilgan ustuvor yo'nalishlar, jumladan, yirik korxonalarni transformatsiya qilish, aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab -quvvatlash, sanoat o'sishi, tashqi bozorda raqobatning kuchayishi, hududlarning eksport va import imkoniyatlari, ichki bozor barqarorligi hamda investitsiya loyihalari masalalari ko'rib chiqilib kerakli chora-tadbirlar belgilandi. Bu esa o'z navbatida barqaror rivojlanishga alohida urg'u berilganini anglatibgina

qolmay, balki mamlakat hududlarida tegishli ishlar amalga oshirilishi ham ko'zda tutilmoxda.

Barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda hududlar raqobatbardoshligini ta'minlash yo'naliшlarining SWOT tahlili¹⁵

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
<ul style="list-style-type: none"> - Tabiiy resurslar: Hududda mavjud tabiiy resurslar (minerallar, suv, yer, o'rmon) barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi; - Geografik joylashuv: Savdo va logistika yo'naliшlari uchun qulay hududlar (masalan, xalqaro transport yo'llariga yaqinlik); - Mehnat resurslari: Yaxshi malakali va arzon ishchi kuchi mavjudligi; - Infratuzilma: Energetika, transport va axborot-kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanganligi; - Innovatsion salohiyat: Hududda ilmiy markazlar yoki texnoparklarning mavjudligi; - Qishloq xo'jaligi salohiyati: Sug'oriladigan yerlar, mo'l hosil va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar. 	<ul style="list-style-type: none"> - Moliyaviy resurslarning cheklanganligi: Mahalliy investitsiya imkoniyatlarining kamligi; - Kadrlar yetishmovchiligi: Yangi texnologiyalarni qo'llash uchun zarur bo'lgan malakali kadrlarning yetishmasligi; - Tashqi bozorlarga chiqishdagi cheklovlar: Mahsulotlar eksportini rivojlantirish uchun marketing va logistika infratuzilmasining sustligi; - Raqobatbardosh innovatsiyalarning yetishmasligi: Texnologik rivojlanishning pastligi va tadqiqotlarga kam e'tibor; - Ekologik muammolar: Tabiiy resurslarning noto'g'ri boshqarilishi, ifloslanish va ekologik degradatsiya.
Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
<ul style="list-style-type: none"> - Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish: Chetdan investitsiyalarni jalb qilish uchun davlat tomonidan rag'batlanuvchi dasturlar; - Eksport salohiyatini oshirish: Qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlarini xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari; - Innovatsiyalar va texnologiyalar transferi: Zamoniaviy texnologiyalarni chet eldan olib kirish va joriy etish; - Regional hamkorlik: Qonuniy va iqtisodiy jihatdan yaqin hududlar bilan strategik sheriklikni kuchaytirish; - Turizmni rivojlantirish: Hududning madaniy va tabiiy salohiyatidan foydalaniб ichki va tashqi turizmni rivojlantirish. 	<ul style="list-style-type: none"> - Iqtisodiy inqiroz: Global iqtisodiy o'zgarishlar hududning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin; - Atrof-muhitning buzilishi: Hududning tabiiy resurslaridan haddan tashqari foydalanish natijasida ekologik muammolar yuzaga kelishi; - Tashqi raqobat: Xalqaro bozorlarda yuqori raqobatbardosh mahsulotlarning mavjudligi; - Qonunchilikdagi o'zgarishlar: Soliq va tarif siyosatidagi noaniqliklar hududiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin; - Aholining migratsiyasi: Malakali ishchi kuchining boshqa hududlarga yoki mamlakatlarga ko'chib ketishi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, hududlar raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, kadrlar tayyorlash tizimini yaxshilash va eksport salohiyatini kuchaytirish ustuvor vazifalardan biri ekanligini alohida ta'kidlash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://president.uz/oz/lists/view/7124>

¹⁵ Muallif tomonidan manbalar asosida tayyorlandi.

2. Kouskoura, A., Kalliontzi, E., Skalkos, D., & Bakouros, I. (2024). Assessing the Key Factors Measuring Regional Competitiveness. *Sustainability*, 16(6), 2574. <https://doi.org/10.3390/su16062574>

3. Judrupa, I. . (2021). Regional Competitiveness as an Aspect Promoting Sustainability of Latvia. *European Journal of Sustainable Development*, 10(1), 650. <https://doi.org/10.14207/ejsd.2021.v10n1p650>

TIJORAT BANKLARIDA ANDERRAYTING JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNI INNOVATSION USULLARI

*Bobojonov Xursand Qadamovich
“IPOTEKA-BANK” OTP GROUP
katta anderrayter-menejer*

O'zbekiston Respublikasida bank sektorini isloh qilishning asosiy yo'nalishi sifatida tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik echimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash belgilanganligi, banklarda risklarni boshqarishning xalqaro tajribalarini o'rganish, xususan, banklarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarga bardoshlilik darajalarini hisobga olgan holda asosiy risk ko'rsatkichlari limitlarini ishlab chiqish va anderrayting jarayonini samarali tashkil etish lozim bo'ladi. Bizga ma'lumki, kredit nafaqat qaytib berish sharti bilan, balki tegishli foiz stavkalari hisobga olingan holda beriladi, bu esa qarzdorlar zimmasiga yuqori mas'uliyatni yuklab, kreditlarni qaytarish muddatlariga rioya qila olishlari haqida jiddiy o'ylaganliklaridan so'ng beriladi. Chunki kredit va moliya operasiyalari bank faoliyatining asosiy qismini qamrab oladigan hal qiluvchi bo'g'inidir. Iqtisodiy islohotlarning rivojlanishi O'zbekistonda xususiy tijorat banklarini vujudga keltirdi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti va bank tizimi rivojlanishining hozirgi, zamonaviy bosqichida anderrayting jarayonlarining takomillashmaganligi uni takomillashtirish yuzasidan xulosa va takliflar ishlab chiqishning zarurligini anglatadi.

Bank tahlilchilari orasida keng tarqalgan aksioma mavjud - risk qanchalik yuqori bo'lsa, daromad shunchalik yuqori bo'ladi. Shuning uchun bank sektori ishtirokchilari barqaror strategik rivojlanishga e'tibor qaratmoqdalar, chunki xo'jalik yurituvchi subyektlarini kreditlashning "yuqori" risklari bilan bog'liq yo'qotishlar aksariyat O'zbekiston banklari uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Risklarni boshqarish nafaqat tranzaksiya darajasida (masalan, bozor operatsiyalari, kreditni tasdiqlash), balki portfel darajasida ham (kredit va depozit siyosatini ishlab chiqish, optimal kredit portfelini tanlash, mumkin bo'lgan yo'qotishlarni aniqlash, sug'urtalash) juda muhimdir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro hamkorligidagina xo'jalik